

Rasmiy bayonot!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdagi "Koronavirus infeksiyasi tarkalishiga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi quyidagilarni ma'lum qiladi:

1. O'zR Fanlar akademiyasi Boshqaruv apparati, mintaqaviy bo'limlari va tizimdagi barcha ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarida COVID-2019 koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish, xodimlarning salomatligini ta'minlash maqsadida maxsus komissiya guruhidan iborat Shtab tashkil etiladi;
2. 2020-yil 24-martidan boshlab ishchi xodimlarni ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarning asosiy ish faoliyatiga ta'sir etmagan holda qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat ta'tiliga chiqarish, qolgan qismining mehnat faoliyatini maksimal darajada masofadan turib (onlayn yoki distantsion tarzda) tashkil etish choralarini ko'riladi;
3. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari mavjud muassasalar tomonidan tasarrufidagi doktorantlar va stajer-tadqiqotchilarga 2020-yilning 24-martidan 30 kalendar kunidan iborat ta'til beriladi.
4. Xodimlar ish joylari va obyektlarda shaxsiy himoya vositalari (maska)da bo'lishlari ustidan qat'iy nazorat o'rnatiladi, shuningdek, karantin choralarini buzgan xodim va ishchilarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy choralar qo'llaniladi.